

### XIII. DEMOGRAFIYA

#### Doimiy aholi soni

Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2023-yil 1 oktabr holatiga 1 994,4 ming kishini tashkil etib, 2023-yil boshidan 18,2 ming kishiga ya‘ni 0,9 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 974,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,8 %), qishloq aholisi soni 1 020,2 ming kishini (51,2 %) tashkil etdi.

#### E‘tiborbering:

#### 2023 yil yanvar-sentabr oylarida

- Aholi soni **18,2 ming kishiga** ko‘paydi.
- Tirik tug‘ilganlar soni **32,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **7,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **9,6 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **1,6 ming nafarni** tashkil etdi

#### 2023-yilning Yanvar-sentabr oylarida

Yil boshida  
Doimiy aholi soni  
**1 976 222 kishi**  
(2023-yil 1 yanvar holatiga)



**32,3** ming  
kishi

Tug‘ilganlar soni



**7,8** ming  
kishi

O‘lganlar soni



**6,5** ming  
kishi

Ko‘chib kelganlar  
soni



**12,8** ming  
kishi

Ko‘chib ketganlar  
soni

Doimiy aholi soni  
**1 994 377 kishi**  
(2023-yilning 1 oktabr holatiga)

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni<sup>1)</sup> (2023-yilning 1-oktabr holatiga, ming kishi)

	Jami aholi	Shu jumladan:	
		shahar aholisi	qishloq aholisi
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>1 994,4</b>	<b>974,2</b>	<b>1 020,2</b>
Nukus sh.	337,6	337,6	-
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	211,1	54,3	156,8
Beruniy	204,0	72,0	132,0
Bo‘zatov	21,9	5,5	16,4
Qonliqo‘l	53,6	13,6	40,0
Qorao‘zak	54,3	16,4	37,9
Kegeyli	74,6	30,2	44,4
Qo‘ng‘irot	135,5	85,6	49,9
Mo‘ynoq	33,6	14,9	18,7
Nukus	53,5	10,8	42,7
Taxiatosh	76,6	54,7	21,9
Taxtako‘pir	38,8	16,7	22,1
To‘rtko‘l	227,7	85,3	142,4
Xo‘jayli	128,2	81,7	46,5
Chimboy	115,4	59,1	56,3
Shumanay	57,9	15,1	42,8
Ellikqal‘a	170,1	20,7	149,4

<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni**  
*(1-oktabr holatiga ming kishi)*

	2022 y.	2023 y.	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati % da</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>1 970,6</b>	<b>1 994,4</b>	<b>101,2</b>
Nukus sh.	333,4	337,6	101,3
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	207,5	211,1	101,7
Beruniy	200,2	204,0	101,9
Bo‘zatov	21,9	21,9	100,0
Qorao‘zak	54,0	54,3	100,6
Kegeyli	74,0	74,6	100,8
Qo‘ng‘irot	134,1	135,5	101,0
Qonliko‘l	52,8	53,6	101,5
Mo‘ynoq	33,4	33,6	100,6
Nukus	52,6	53,5	101,7
Taxiatosh	76,1	76,6	100,7
Taxtako‘pir	40,8	38,8	95,1
To‘rtko‘l	223,7	227,7	101,8
Xo‘jayli	126,9	128,2	101,0
Chimboy	114,8	115,4	100,5
Shumanay	57,5	57,9	100,7
Ellikqal‘a	166,9	170,1	101,9


## Yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy harakati

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga nisbatan promille</i>	
	<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.<sup>1)</sup></i>	<i>o‘shish, kamayish</i>	<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.<sup>2)</sup></i>
Tug‘ilganlar	30 833	32 336	1 503	21,0	21,8
O‘lganlar	7 143	7 836	693	4,9	5,3
Tabiiy o‘shish	23 690	24 500	810	16,1	16,5
Nikohlar	10 899	9 638	-1 261	7,4	6,5
Ajralishlar	1 554	1 552	-2	1,1	1,0

**Tug‘ilish darajasi.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 32 336 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (30 833 kishi) nisbatan 1 503 kishiga yoki 4,9 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 21,8 promilleni tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (21,0 promille) nisbatan 0,8 promillega ko‘paydi.

### Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-sentabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining ko‘payishi Respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Nukus tumanida 23,5 dan 25,9 promillega, Ellikqal‘ada 23,2 dan 25,5 promillega, Qonliko‘lda 19,2 dan 21,5 promillega va Taxtako‘pirda 16,5 dan 18,1 promillega ko‘payishi kuzatilgan.

<sup>1)</sup> dastlabki ma‘lumot


<sup>2)</sup> dastlabki ma‘lumot

**Tug‘ilish.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 32,3 mingta kishi tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mosravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 21,8 promilleni tashkil etdi hamda 2022-yilning mos davriga (21,0 promille) nisbatan 0,8 promillega ko‘payishi kuzatildi.

**Ma'lumotuchun**


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurakurishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

**Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti**  
(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida)




**O‘lim darajasi.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida o‘lganlar soni 7 836 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (7 143 kishi) nisbatan 693 kishiga yoki 9,7 foizga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 5,3 promilleni tashkil qildi (2022 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,9 promille).

## 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



### O‘lim koeffitsientlari




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Taxtako‘pirda (5,0 dan 9,5 promillega), Chimboyda (5,7 dan 8,1 promillega), Shumanayda (3,8 dan 5,9 promillega) va Qorao‘zak tumanida (6,0 dan 7,8 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

**Nikoh.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 9,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,5 promilleni tashkil etdi.




**Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni vakoefitsienti**  
(2023-yilning yanvar-sentabr oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



**Nikohdan ajralishlar.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 1,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,0 promilleni tashkil etdi.

## Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti (2023 yilning yanvar-sentabr oylari holatiga)



**Nikohlar va ajralishlar.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylari FHDYo organlarida 9 638 ta nikohlar va 1 552 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 6,5 ta nikoh (2022-yilning tegishli davrida 7,4 ta) va 1,0 ta ajralishlar (2022-yilning tegishli davrida 1,1 ta) to‘g‘ri kelgan.

### Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni (yanvar-sentabr oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2022 y.	2023 y. <sup>2)</sup>	2022 y.	2023 y. <sup>2)</sup>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>10 899</b>	<b>9 638</b>	<b>1 554</b>	<b>1 552</b>
Nukus sh.	1 828	1 590	344	302
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	1 213	1 121	133	118
Beruniy	1 186	1 055	146	173
Bo‘zatov	112	74	16	13
Qonliko‘l	256	238	48	39
Qorao‘zak	265	229	39	48
Kegeyli	352	330	44	64
Qo‘ng‘irot	942	695	122	137
Mo‘ynoq	159	111	26	20
Nukus	344	271	48	41
Taxiatosh	378	313	73	58
Taxtako‘pir	167	193	42	37
To‘rtko‘l	1 174	1 234	122	139
Xo‘jayli	684	615	104	108
Chimboy	572	481	97	97
Shumanay	252	209	32	37
Ellikqal‘a	1 015	879	118	121



**Migratsiya<sup>1</sup> (Ichki va tashqi).** Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida Respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 6 473 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 12 818 kishini tashkil qilgan.



**Aholi migratsiyasi (kishi)**

		2022-yilning yanvar-sentabr oylarida	2023-yilning yanvar-sentabr oylarida
	<b>Ko‘chib kelganlar</b>	6 027	6 473
	<b>Ko‘chib ketganlar</b>	7 586	12 818
<b>+ -</b>	<b>Migratsiya saldosı</b>	-1 559	-6 345

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida migratsiya qoldig‘i minus 6 345 kishiga (2022-yilning shu davrida minus 1 559 kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Nukus shahrida (minus 875), Xo‘jayli (minus 700) va Chimboy (minus 675) tumanlarida kuzatilgan.

**yanvar-sentabr oylarida**

**Soni, ming kishi**



<sup>1</sup> Shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo‘shgan holda  
<sup>2</sup> dastlabki ma’lumot

## Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

	Jami ko‘chib kelganlar (kishi)	shundan:		Jami ko‘chib ketganlar (kishi)	shundan:	
		Respublika-ning boshqa hududlaridan	Xorijiy mamlakatlardan		Respublika-ning boshqa hududlariga	Xorijiy mamlakatlarga
Nukus sh.	2 125	2107	18	3 000	1 681	1319
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	231	222	9	640	475	165
Beruniy	237	230	7	537	252	285
Bo‘zatov	81	81	0	291	130	161
Qorao‘zak	158	155	3	402	235	167
Kegeyli	287	282	5	613	404	209
Qo‘ng‘irot	356	335	21	1 029	363	666
Qonliko‘l	196	194	2	366	295	71
Mo‘ynoq	146	145	1	322	128	194
Nukus	550	531	19	688	436	252
Taxiatosh	288	276	12	677	285	392
Taxtako‘pir	148	132	16	608	140	468
To‘rtko‘l	336	322	14	474	340	134
Xo‘jayli	505	490	15	1 205	476	729
Chimboy	359	357	2	1 034	547	487
Shumanay	207	200	7	390	289	101
Ellikqal‘a	263	263	0	542	372	170




## Poytaxtdagi demografik holat



Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2023-yil 1 oktabr holatiga 337,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 3,0 ming kishiga yoki 0,9 % ga o‘sgan.

### Nukus shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan promille)

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida	2023-yilning yanvar-sentabr oylarida
<b>Tug‘ilish</b>	
20,1	20,5



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 5,1 ming kishi tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 20,5 promilleni tashkil etdi (2022-yilning mos davrida 20,1 promille bo‘lgan).

FXDYo organlarida 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida 1,6 mingta nikoh va 0,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,3 promilleni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 1,1 promillega kamaygan (2022-yilning mos davrida 7,4 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,2 promilleni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi. 2022-yilning mos davrida 1,4 promille bo‘lgan.

### Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (yanvar-sentabr holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)

